

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “AL-FOIQ FI G‘ARIBI-L-HADIS” ASARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA STRUKTUR- GRAMMATIK TADQIQI

Ro‘zaliyev Hikmatulloh Abdujabbor o‘g‘li,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tili frazeologik tizimining murakkab qatlamlari, xususan, Mahmud Zamaxshariyning “Al-foiq fi g‘aribi-l-hadis” asarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning struktur-grammatik va morfologik-sintaktik xususiyatlari tadqiq etiladi. Asar leksikonidan ajratib olingan idiomatik birliklar mikrosintaktik va mezosintaktik darajalarda tasniflanib, ularning ichki qoliplari lisoniy tahlilga tortilgan. Tadqiqot obyekti sifatida fe‘lli, o‘tli, sifatli va ravishli frazemalarning mantiqiy-semantik butunligi, komponentlararo sintaktik aloqa va moslashuv masalalari o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, arab tili frazemalari qat‘iy morfologik qoliplarga bo‘ysungan holda, chuqur majoziy obrazlarni ifodalovchi turg‘un konstruksiyalar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, struktur-semantik butunlik, arab tili frazeologiyasi, mikrosintaktik qolip, mezosintaktik qolip, frazeobirikma, frazeogap, izofa qurilmasi, Mahmud Zamaxshariy, lisoniy kod.

Abstract. This article studies the complex layers of the phraseological system of the Arabic language, in particular, the structural-grammatical and morphological-syntactic features of phraseological units used in Mahmud Zamakhshari's work "Al-faiq fi gharibi-l-hadis". Idiomatic units extracted from the lexicon of the work are classified at the microsyntactic and mesosyntactic levels, and their internal patterns are subjected to linguistic analysis. As the object of research, the logical-semantic integrity of verb, noun, qualitative and adverbial phrasemes, issues of syntactic communication and adaptation between components are studied. The results show that Arabic phrasemes are stable constructions that express deep figurative images, subject to strict morphological patterns.

Keywords: phraseological unit, structural-semantic whole, Arabic phraseology, microsyntactic pattern, mesosyntactic pattern, phraseological unit, phraseological unit, isophane device, Mahmud Zamakhshari, linguistic code.

Аннотация. В данной статье исследуются сложные слои фразеологической системы арабского языка, в частности, структурно-грамматические и морфологически-синтаксические особенности фразеологических единиц, используемых в произведении Махмуда Замахшари «Аль-фаик фи гариби-ль-хадис». Идиоматические единицы, извлеченные из лексикона произведения, классифицируются на микросинтаксическом и мезосинтаксическом уровнях, а их внутренние структуры подвергаются лингвистическому анализу. В качестве объекта исследования изучается логико-семантическая целостность глагольных, именных, качественных и наречных фразеологий, вопросы синтаксической коммуникации и адаптации между компонентами. Результаты показывают, что арабские фразеологии представляют собой устойчивые конструкции, выражающие глубокие образные смыслы, подчиняющиеся строгим морфологическим моделям.

Ключевые слова: фразеологическая единица, структурно-семантическое целое, арабская фразеология, микросинтаксическая модель, мезосинтаксическая модель, фразеологическая единица, изофаный прием, Махмуд Замахшари, лингвистический код.

Kirish. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning lisoniy tabiatini, ularning sintaktik va morfologik tuzilishini tadqiq etish muhim fundamental ahamiyat kasb etadi. Arab tili frazeologiyasi o‘zining tarixiy qadimiyligi, strukturaviy turg‘unligi hamda boy lingvokulturologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Klassik arab tili yodgorliklarida, jumladan, hadis ilmi va tafsir asarlarida qo‘llanilgan idiomalar nafaqat leksik jihatdan, balki sintaktik sath darajasida ham chuqur tahlil qilinishini talab etadi. Shu nuqtai

nazardan, arab tilshunosligi maktabining yirik vakili Mahmud Zamaxshariyning “Al-foiq fi g‘aribi-l-hadis” asari o‘zida qadimiy frazeologik fondni jamlagan bebaho lisoniy manba sanaladi.

Frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlarini lingvistik tadqiq etishda, avvalo, ularning asl shakli hamda paradigmatic shakllarini qat’iy farqlash metodologik ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, frazemaning asl shakli o‘z ichiga komponentlar tarkibini, frazeologik birlikning sintaktik chegaralarini, turg‘un komponentlarning ehtimoliy variantlarini, fakultativ, ya’ni tushirib qoldirilishi mumkin bo‘lgan elementlarni va umuman, frazemaning struktur tashkil etilishini qamrab oladi (Бекиров Р. А. Актуальность исследования глагольных фразеологизмов в арабском языке // Ученые записки ТНУ. Сер.: Филология. – 2009. – № 3, Т. 22 (61). – С. 17–23). Bu qonuniyatga tayangan holda aytish mumkinki, Zamaxshariy asarida qayd etilgan frazemalar shunchaki tasodifiy so‘zlar yig‘indisi emas, balki murakkab struktur-semantik butunlik sifatida namoyon bo‘lib, ularning tarkibi arab tilining o‘ziga xos morfologik va sintaktik qonuniyatlariga qat’iy bo‘ysunadi.

Tadqiqotning asosiy muammosi shundan iboratki, klassik arab tilidagi idiomalarning genetik tabiati ularning makrosintaktik va mikrosintaktik muhitdagi o‘rnini qanday belgilashi haligacha tizimli ravishda qoliplashtirilmagan. Arab tili frazemalari, ularning tarkibiy qismlari genetik jihatdan mustaqil so‘zlarga yoki yordamchi so‘zlarga borib taqalishidan qat’i nazar, minimal darajada ikki va undan ortiq komponentdan tashkil topadi (Бекиров Р. А. Учебное пособие. Ч. I. – Симферополь, 2016. – С. 16.). Ushbu qoida asosida Zamaxshariy matnlaridagi frazemalarni o‘rganish ularning tarkibiy unsurlari (subyekt, obyekt, yordamchi so‘zlar) o‘rtasidagi bog‘liqlikning morfologik indeksini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – Mahmud Zamaxshariyning “Al-foiq fi g‘aribi-l-hadis” asarida uchrovchi frazeologik birliklarni ularning morfologik va sintaktik yasaliş qoliplari asosida guruhlash, ularning leksik-semantik transformatsiya jarayonlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida lisoniy tahlilning tavsifiy, struktur-semantik, shuningdek, komponent va kontekstual tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Frazeologik birliklarning ichki tuzilishi va ularning gapdagi funksional xususiyatlarini dalillash maqsadida rasmiy-grammatik modellashtirish usuli qo‘llanildi.

Frazemalarni morfologik-sintaktik jihatdan tasniflashda markaziy yadro vazifasini bajaruvchi komponentning turkumi asosiy mezon qilib olindi. Bu o‘rinda tadqiqot strukturasi asosiy ikkilik – fe‘lli va otli (nominal) frazemalar qarama-qarshiligiga, shuningdek, sifatli va ravishli qurilmalarga ajratildi. O‘z tarkibida fe‘lni majburiy komponent sifatida talab qiluvchi va ma’no ko‘chishi asosan harakat, jarayon yoki holatni ifodalashga qaratilgan birliklar fe‘lli frazemalar deb belgilandi. Otli frazeologik birliklar esa fe‘lli frazemalarga nisbatan ancha aniqroq grammatik strukturaga, asosan so‘z

birikmasi qolipiga ega ekanligi e'tiborga olinib, izofa va sifatlanmish-sifatlovchi munosabatlari asosida tahlil qilindi.

Sintaktik sath darajasiga ko'ra lisoniy birliklarni tasniflashda V.D. Ushakovning konseptual yondashuviga tayanildi. Olimning ta'kidlashicha, genetik manbasi so'z birikmasiga borib taqaluvchi turg'un birliklarni "frazeobirikma", gapga borib taqaluvchi birliklarni esa "frazeogap" deb atash maqsadga muvofiqdir (Ушаков В. Д. Фразеология Корана: Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка. – М.: Восточная литература РАН, 1996. – С. 85). Ushbu tamoyil asosida materiallar quyidagi ikki yirik sathga ajratildi:

Mikrosintaktik daraja: Subyekt ishtirok etmagan, tarkiban so'z birikmasi qolipidagi frazemalar (fe'l+to'ldiruvchi, ot+ot izofasi kabi).

Mezosintaktik daraja: O'z tarkibida grammatik subyekt – foil yoki muhtadoni majburiy ravishda jamlagan, butun bir gap shaklidagi frazeogaplar.

Qoliplarni ifodalashda xalqaro lingvistik qisqartmalardan foydalanildi: **V** (Verb – fe'l), **N** (Noun – ot), **N_{acc}** (Nasb / tushum kelishigidagi ot), **N_{gen}** (Majrur / qaratqich kelishigidagi ot), **N_{nom}** (Raf' / bosh kelishikdagi ot), **Pron** (Pronoun – olmosh), **Prep** (Preposition – predlog / huruf al-jarr), **Adj** (Adjective – sifat) va **Conj** (Conjunction – bog'lovchi / huruf al-atf). Ushbu formulalar har bir modelning abstrakt grammatik karkasini namoyish etish vositasi sifatida xizmat qildi.

Frazeologik butunliklarning izohli tarjimasini berishda dastlab birlikning asl so'zma-so'z tarjimasini, so'ngra uning asar matnida namoyon bo'lgan pragmatik va frazeologik ma'nosi yoritildi. Bu usul frazeologik sememaning yuzaga kelishidagi metaforik yoki metonimik ko'chim ko'lamini aniq ko'rsatib berish imkonini yaratdi.

Natijalar. Mahmud Zamaxshariyning "Al-foiq fi g'aribi-l-hadis" asaridagi o'ziga xos arabcha frazemalar faqatgina leksik material emas, balki tilning qat'iy morfologik-sintaktik qoliplariga bo'ysungan va vaqt sinovidan o'tgan qadimiy struktur konstruksiyalar hisoblanadi. Frazemalarning qismlari tushum yoki qaratqich kelishiklarida muayyan predloglar bilan kelishi tasodifiy bo'lmay, balki harakatning yo'nalishi, o'xshatish asosi yoki holat kabi frazemaning ichki semantik mantig'ini ta'minlovchi lingvistik vositalardir. Quyida matndan ajratib olingan idiomatik birliklarning sintaktik darajalarga ko'ra tahlili keltiriladi.

3.1. Fe'lli frazemalarning mikrosintaktik modellari. Tuzilishi jihatidan til amaliyotida eng ko'p uchraydigan frazeologik qoliplar orasida to'g'ri to'ldiruvchisi ot yoki tirkalgan otlar birikmasi bilan ifodalangan fe'l-obyekt sintagmasi alohida ajralib turadi. Arab tilida tashqi obyektning tushum kelishigi fe'l anglatayotgan harakat bevosita yo'naltirilgan predmetni bildiradi va bevosita o'timli fe'llar tomonidan boshqariladi (Гранде Б. М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Восточная литература РАН, 1998. – С. 438–439).

Model 1. Fe'l + tushum kelishigidagi ot (V + N_{acc}) Mazkur qolip tranzitiv (o'timli) fe'l hamda uning bevosita obykti bo'lib kelgan, nasb holatidagi otdan iborat. Ular chuqur semantik transformatsiyaga uchragan butunliklardir:

الأود أقام (aqoma al-avada). So'zma-so'z: egrilikni (qiyshilikni) tikladi. Asardagi ma'nosi: qing'irlikni to'g'riladi, xatoni tuzatdi, ishlarni to'g'ri o'zanga soldi. أقام (IV bob o'tgan zamon o'timli fe'li) o'z ichiga yashirin foilni (هو) olgan, الأود (aniq holatdagi ot, maf'ulun bih) tushum kelishigida kelgan. Fe'l ham, to'ldiruvchi ham o'zining asl denotativ ma'nosidan uzoqlashib, yaxlit "qoidabuzarlikka chek qo'yish" majoziy sememasini hosil qilgan.

غَمْرَةٌ خَضْتُ (xoztu g'omratan). So'zma-so'z: chuqur suvga (yoki suv girdobiga) kirdim. Ma'nosi: qiyinchiliklar va xavf-xatarlarga mardona kirishdim, qaltis ishga qo'l urdim. "G'omra" (insonni ko'mib yuboradigan darajadagi ko'p suv) leksik birligi "tashvishlar girdobi"ga metaforik ko'chirilgan va fe'l bilan ajralmas sintaktik yadro hosil qilgan.

القرآن جَرَدُوا (jarridu al-Qur'ana). So'zma-so'z: Qur'onni yalang'ochlang. Ma'nosi: Qur'onga boshqa so'z yoki tafsirlarni aralashtirmang, unga sof holda yondashing. جَرَدُوا (II bob ko'plikdagi buyruq fe'li) va القرآن (aniq holatdagi tushum kelishigidagi ot). Buyruq maylidagi fe'lli frazemalar qat'iylik va imperativlikni ifodalaydi.

Model 2. Fe'l + tushum kelishigidagi ot + birikkan olmosh (V + N_{acc} + Pron) Morfologik-sintaktik modelda o'timli fe'l o'zidan keyin izofa holatidagi birikmani to'g'ri to'ldiruvchi sifatida qabul qiladi. Ot tushum kelishigida bo'lib, unga egalikni bildiruvchi birikkan olmosh qo'shiladi.

مِذْرَوِيهِ يَنْفُضُ (yanfuzu mizravayhi). So'zma-so'z: o'zining ikki yelkasini silkitmoqda. Ma'nosi: haddan tashqari kibrlanmoqda. يَنْفُضُ (muzori' fe'li) + مِذْرَوِي (nasb holatidagi ikkilik shaklidagi ot) + و (uchinchi shaxs muzakkar olmoshi). Somatik frazema subyektning tashqi harakati orqali ichki mutakabbirligini chizib beradi.

كَبِدَهُ فَدَّ (falaza kabitahu). So'zma-so'z: uning jigarini kesib oldi. Ma'nosi: qattiq qayg'uga soldi, aza azobiga duchor qildi. كَبِد (jigar) lisoniy-madaniy kod sifatida "eng yaqin inson" (farzand) ma'nosini tashiydi. Birlilik to'liq chatishma frazema bo'lib, erkin sintaktik aloqasini butunlay yo'qotgan.

رَفَعَهُ رَفَعَتْهُ (rafa'a 'aqiyratahu). So'zma-so'z: u o'zining kesilgan oyog'ini ko'tardi. Ma'nosi: ovozini baland qilib kuyladi, dod-faryod qildi. رَفَعَتْهُ o'zining asl ma'nosini (kesilgan a'zo) to'liq yo'qotib, "ovoz" semasi bilan almashgan.

Model 3. Fe'l + predlog + birikkan olmoshli ot (V + Prep + N_{gen} + Pron) Vositali o'timli fe'llar guruhiga kiruvchi bu qurilmada fe'l predlogli to'ldiruvchini boshqaradi va obyekt majrur holatida keladi:

بِذَلِكَ شَرِقَ (shariqa bizalika). So'zma-so'z: bu (narsa) bilan tiqilib qoldi. Ma'nosi: bu ishdan qattiq g'azablandi, ichi siqildi. شَرِقَ fe'lining asl denotativ ma'nosi tomog'iga suv tiqilib qolishini bildirsa-da, iborada predlog (بِ) vositasida harakat psixologik holatni ifodalashga xizmat qilmoqda.

بِالذَّنْبِ لَطَّتْ (lattat bi-z-zanabi). Soʻzma-soʻz: dumi bilan yopishtirdi. Maʼnosi: qatʼiy rad etdi, boʻysunishdan bosh tortdi. لَطَّتْ (muannas jinsdagi feʼl) harakati ب predlogi orqali الذَّنْبِ (dum) otiga oʻtib, leksema sifatidagi mustaqilligi cheklangan yaxlitlikni shakllantirgan.

Model 4. Feʼl + birikkan olmosh + predlog + ot + birikkan olmosh (V + Pron + Prep + N + Pron) Vositasi bilan va vositasiz oʻtimli feʼllar ishtirok etuvchi ushbu sintaktik qolipda birinchi toʻldiruvchi birikkan olmosh orqali toʻgʻridan-toʻgʻri, ikkinchi toʻldiruvchi esa predlog orqali keladi. Harakatning yoʻnaltirilganligi murakkab xarakterga ega:

بِذَلِكَ أُزْبِيَهُ (uzbiyahu bizalika). Soʻzma-soʻz: bu narsa bilan uni bezovta qilaman. Maʼnosi: uning zimmasiga ogʻir yuk yuklab, bezovta va tajang qilaman. أُزْبِيَهُ (muzoriʼ feʼli) + هُ (toʻgʻri toʻldiruvchi vazifasidagi muttasil olmosh) + ب (predlog) + ذَلِكَ (koʻrsatish olmoshi).

Model 5. Feʼl + tushum kelishigidagi ot + qaratqich kelishigidagi ot (V + N_{acc} + N_{gen} - izofa) Arab tili frazeologik tizimidagi eng mahsuldor mikrosintaktik qoliplardan biri boʻlib, unda feʼldan keyingi obyekt aniqlovchi-aniqlanmish (izofa) qurilmasida keladi:

أَنْفَهُ حَتَفَ مَاتَ (mata hatfa anfihi). Soʻzma-soʻz: oʻz burnining oʻlimi bilan oʻldi. Maʼnosi: tabiiy oʻlim bilan vafot etdi. مَاتَ (oʻtgan zamon feʼli) + حَتَفَ (tushum kelishigidagi muzof) + أَنْفِ (majrur holatdagi muzof ilayh) + هُ. Ushbu struktura toʻliq frazeologik chatishmaga aylangan.

أَطْلَقْنَا الْحَرْبَ عِقَالًا أَطْلَقْنَا (atlaqna 'iqola al-harb). Soʻzma-soʻz: urushning arqonini yechdik. Maʼnosi: urush olovini yoqdik. "Urush" leksemasi metaforik koʻchim asosida bogʻlangan tuyaga oʻxshatilgan.

أَكَلْتُ السَّنَامَ ذِرْوَةَ أَكَلْتُ (akaltu zirvata as-sanam). Soʻzma-soʻz: tuyaning oʻrkach choʻqqisini yedim. Maʼnosi: eng yaxshi narsalarni qoʻlga kiritdim. Tushum kelishigidagi obyekt izofa (السَّنَامَ ذِرْوَةَ) shaklida saqlangan.

Model 6. Feʼl + toʻgʻri toʻldiruvchi + birikkan olmosh + predlog + ot / olmosh (V + N_{acc} + Pron + Prep + N / Pron) Murakkab obyektli feʼllarga xos boʻlib, feʼl harakati dastlab bevosita obyektga, soʻngra predlog orqali ikkinchi obyektga yoʻnaltiriladi:

لَجَعَلْتُ فِي أَنْفِكَ قَفَاكَ (la jaʼaltu anfaka fi qofaka). Soʻzma-soʻz: sening burningni ensangga qilib qoʻyaman. Maʼnosi: sendan qatʼiy yuz oʻgiranman, seni qattiq haqorat qilaman. Birinchi obyekt – أَنْفِكَ (tushum kelishigidagi ot + muttasil olmosh), ikkinchi vositali obyekt – فِي قَفَاكَ (predlog + ot + olmosh). Kuchli somatik idioma sanaladi.

Model 7. Feʼl + predlog + ot + birikkan olmosh + toʻgʻri toʻldiruvchi (V + Prep + N + Pron + N_{acc}) Oltinchi modelning inversion koʻrinishi boʻlib, predlogli toʻldiruvchi toʻgʻri toʻldiruvchidan oldin joylashadi:

مُوسَى حَلَقَهُ عَلَى أَمْرَتِ (amrarta 'ala halqihhi musa). Soʻzma-soʻz: uning tomogʻiga ustara tortding. Maʼnosi: uni huzurida maqtab, halokatiga sabab boʻlding.

يُجْرَجِرُ فِي جَوْفِهِ نَارَ جَهَنَّمَ (yujarjiru fi javfihi nara jahannama). Soʻzma-soʻz: qornida jahannam olovini gulduratmoqda. Maʼnosi: harom yeb, oʻzini muqarrar halokatga giriftor qilmoqda.

Model 8. Feʼl + predlog + birikkan olmosh + tushum kelishigidagi ot (V + Prep + Pron + N_{acc}) Tushum kelishigidagi ot toʻgʻri toʻldiruvchi emas, balki hol yoki tamyiz (oydinlashtiruvchi boʻlak) vazifasini bajaradi:

ذُرْعًا بِهِ ضَاقَ (zoqo bihi zarʼan). Soʻzma-soʻz: buning uzunasiga oʻlchovi torlik qildi. Maʼnosi: bunga majoli yetmadi, ojiz qoldi. ضَاقَ (oʻtimsiz feʼl) + بِهِ (predlog + olmosh) + ذُرْعًا (tushum kelishigidagi ot, tamyiz).

Model 9. Feʼl + feʼl (V + V) Asosiy komponentlar faqat feʼllardan iborat boʻlib, sinonimik yoki antonimik munosabatdagi qatʼiy birikmalar sifatida keladi:

لَا يَنْطِقُ وَلَا يَنْتَقُ (la yantiq va la yantiq). Soʻzma-soʻz: qimirlamaydi ham, gapirmaydi ham. Maʼnosi: mutlaq sukut saqlaydi, toʻliq itoatda. Paronimik xarakterga ega feʼllarning sintagmatik birishuvi.

وَتَدَسَّعَ تَرْبَعًا (tarbaʼu va tadsaʼu). Soʻzma-soʻz: chorak qismini olasan va ulashasan. Maʼnosi: mutlaq rahbarlik va saxiylik qilyapsan.

وَأَنْتَعَشَ تَعَسًا (taʼisa va intaʼasha). Soʻzma-soʻz: yiqildi va oʻrnidan turdi. Maʼnosi: oxiri voy boʻldi, xafsala pir boʻldi.

3.2. Feʼlli frazemalarning mezosintaktik modellari. Frazegaplarning asosiy differensial belgisi shundaki, ularning tarkibida grammatik subyekt, bosh boʻlak – foil yoki muhtado albatta ishtirok etadi. Frazegap tarkibidagi feʼl komponenti hamisha ega vazifasini bajaruvchi nominal komponentga grammatik jihatdan tobe boʻladi.

Model 1. Feʼl + bosh kelishikdagi ot (foil) (V + N_{nom}) Tarkibiy jihatdan oʻtimsiz yoki majhul nisbatdagi feʼl hamda uning bajaruvchisi boʻlgan rafʼ (bosh kelishik) holatidagi otdan iborat sodda gap qolipidir:

عَرَشِيَّ ثُلًّا (sulla ʼarshiy). Soʻzma-soʻz: mening taxtim agʻdarildi. Maʼnosi: hukmronligim barham topdi, obroʻ-eʼtiborim toʻkildi. "Arsh" nominal komponenti insonning ijtimoiy statusini metaforik tarzda ifodalaydi.

الْحَرْبِ رَحًا دَارَتْ (darat raho al-harbi). Soʻzma-soʻz: urush tegirmoni aylandi. Maʼnosi: jang oʻzining eng qizgʻin pallasiga kirdi.

الْأَمْرُ تَفَشَّعَ (tafashshagʻa al-amru). Soʻzma-soʻz: ish (yoki narsa) oʻsib, chirmashib ketdi. Maʼnosi: muammo keng yoyildi, vaziyat qamrovi kengayib ketdi.

Model 2. Feʼl + predlog + birikkan olmosh + bosh kelishikdagi ot (V + Prep + Pron + N_{nom}) Feʼldan soʻng darhol majrur holatdagi predlogli olmosh keladi, harakatning boshqaruvchisi boʻlgan bosh kelishikdagi ot (foil) esa gapning oxirida joylashib, inversiyani taʼminlaydi:

شِقَّةٌ مِنْهُ طَارَتْ (torot minhu shiqqa). Soʻzma-soʻz: undan bir parcha uzoqqa uchib tushdi. Maʼnosi: u haddan tashqari qattiq gʻazablendi, oʻzini yoʻqotdi.

الْأَعْنَاقُ عَلَيْهِ تَقَطَّعَتْ (taqotta‘at ‘alayhi al-a‘naqu). So‘zma-so‘z: uning ustida bo‘yinlar uzildi. Ma‘nosi: u fazilat va yutuqlarda hammadan shu qadar o‘zib ketdiki, boshqalar unga yetaman deb harakat qilib charchadi.

Model 3. Fe‘l + bosh kelishikdagi ot + birikkan olmosh (V + Nnom + Pron) Foil vazifasida kelgan ot ko‘pincha insonning tana a‘zosi bo‘lib, unga egalikni bildiruvchi muttasil olmosh tirkaladi.

أَنْفُهُ وَرِمَ (varima anfuhu). So‘zma-so‘z: uning burni shishdi. Ma‘nosi: unda qattiq g‘azab va mutakabbirlik uyg‘ondi.

نَفْسُهُ فَاضَتْ (fazat nafsuhu). So‘zma-so‘z: uning nafsi toshib ketdi. Ma‘nosi: jon taslim qildi, vafot etdi.

نَفْسِي جَاشَتْ (jashat nafsiy). So‘zma-so‘z: mening qalbim qaynadi. Ma‘nosi: yuragim qinidan chiqqudek qo‘rqdim, vahimaga tushdim.

Model 4. Fe‘l + tushum kelishigidagi olmosh (obyekt) + bosh kelishikdagi ot (V + Pron_{acc} + Nnom) Fe‘l o‘ziga obyekt sifatida tushum kelishigidagi muttasil olmoshni biriktirib oladi, foil esa oxirida keladi. Odatda tashqaridan shaxsga qaratilgan harakatni ifodalaydi:

الْقِيءُ يَذْرَعُهُ (yazra‘uhu al-qoy‘u). So‘zma-so‘z: qayt qilish uni yengdi. Ma‘nosi: harakatiga qaramay eplolmay qoldi, ixtiyorsiz ravishda mag‘lub bo‘ldi.

الْكَذُوبُ صَدَّقْتُهُ (saddaqothu al-kazubu). So‘zma-so‘z: yolg‘onchi uni tasdiqladi. Ma‘nosi: so‘ng g‘ururi tushib qo‘rqoqlik qildi.

شَعُوبُ أَرَارَتْهُ (azarothu sha‘ub). So‘zma-so‘z: Sha‘ub (uni) ziyorat qildirdi. Ma‘nosi: o‘lim farishtasi uning jonini oldi, vafot etdi.

Model 5. Fe‘l + predlog + tushum/qaratqich kelishigidagi ot + foil/subyekt yashirin holatda (V + Prep + N)

وَفَرَّخَ الشَّيْطَانُ فِيهِمْ بَاضَ (boza fihimu ash-shaytonu va farroxa). So‘zma-so‘z: shayton ularning ichida tuxum qo‘ydi va bola ochdi. Ma‘nosi: shayton u yerni o‘z makoniga aylantirdi, fitna va fasod ildiz otdi. (Izoh: Qolip doirasida yashirin emas, balki "Shayton" (الشَّيْطَانُ) so‘zi bevosita foil vazifasida kelgan va u predlogli birikmadan so‘ng o‘rin olgan).

3.3. Otli frazemalarning morfologik-sintaktik modellari. Otli frazeologik birliklar barqaror va qat‘iy grammatik strukturaga ega bo‘lib, asosan so‘z birikmasi qolipida namoyon bo‘ladi va makrosintaktik muhitda yagona gap bo‘lagi vazifasini bajaradi.

Model 1: Ot + Qaratqich kelishigidagi ot (Izofa qurilmasi / N + N_{gen}) Arab tilining nominal frazeologiyasidagi eng sermahsul qolip.

الْخَيْلُ أَحْلَاسُ (ahlasu al-xayl). So‘zma-so‘z: otlarning yoping‘ichlari. Ma‘nosi: ot ustidan tushmaydigan doimiy chavandozlar, jangchilar.

الكلم جوامع (javomi‘ al-kalim). So‘zma-so‘z: so‘zlarning jamlovchilari. Ma‘nosi: oz so‘z bilan ko‘p ma‘no ifodalovchi qisqa va sermazmun nutq.

الجنة بُحْبُوحة / الدار بُحْبُوحة (buhbuhatu al-janna / buhbuhatu ad-dor). Soʻzma-soʻz: jannatning markazi / hovlining oʻrtasi. Maʼnosi: eng yaxshi, keng, ochiq va tanlangan moʻl-koʻl joy.

Model 2: Ot + Sifat (Sifatlovchi-sifatlanmish qurilmasi / N + Adj) Nominal yadro va uni bevosita aniqlab keluvchi sifat komponenti jins, son, kelishik va aniqlik-noaniqlikda oʻzaro toʻliq moslashgan boʻladi:

الباردة الغنيمَة (al-gʻonimatu al-barida). Soʻzma-soʻz: sovuq oʻlja. Maʼnosi: oson, ter toʻkmasdan, jang mashaqqati va xavf-xatarsiz qoʻlga kiritilgan yutuq.

المحكك الجذيل (al-juzaylu al-muhakkak). Soʻzma-soʻz: ishqalangan, silliqlashgan kichik qoziq. Maʼnosi: hayotning koʻp sinovlaridan oʻtgan, tajribali, maslahatiga suyaniladigan dono inson.

سَابِرِيٌّ عَرَضٌ ('arzun sabiriyun). Soʻzma-soʻz: Sobiriy koʻrinish. Maʼnosi: yengil-yelpi, oʻta yupqa, haqiqiy kuchi yoki mantiqi boʻlmagan yuzaki narsa.

Model 3: Ot + Predlog + Ot (N + Prep + N) Ikkita nominal komponent oʻzaro predlog yordamida sintaktik aloqaga kirishadi:

الجُؤُنِ مِنْ شُعْبَةٍ (shuʻbatun mina-l-junun). Soʻzma-soʻz: jinnilikdan bir shoxcha. Maʼnosi: yoshlik davridagi joʻshqinlik, yoshlik qiziqqonligi va ehtirosi.

الدُّنْيَا مِنْ لُغَاةٍ (luʻaʻatun mina-d-dunya). Soʻzma-soʻz: dunyodan bir chimdim oʻt-oʻlan. Maʼnosi: dunyoning arzimaydigan, oʻtkinchi, arzon matohi.

بالهَدِيَةِ السُّحْتِ (as-suhtu bi-l-hadiyyati). Soʻzma-soʻz: hadya orqali kelgan harom narsa. Maʼnosi: pora olish, sovgʻa niqobi ostidagi poraxoʻrlik.

Model 4: Ot + Bogʻlovchi + Ot (N + Conj + N) Teng bogʻlanish asosida ikkita mustaqil nominal komponent "vav" (وَ) bogʻlovchisi yordamida birlashadi:

وَالْعَيْبَةُ الْكَرِشُ (al-karishu va al-ʻaybatu). Soʻzma-soʻz: qorin va xurjun. Maʼnosi: sirdoshlar, eng yaqin xos kishilar, ichki ittifoqchilar.

وَهَاءُ هَاءُ (haʻa va haʻa). Soʻzma-soʻz: ol va ol. Maʼnosi: naqdga naqd, qoʻlma-qoʻl, bir majlisning oʻzidayoq hisob-kitob qilish.

Model 5: Miqdor son + Sifatlashgan ot (Num + Adjpas)

مُقْفَلَاتٌ أَرْبَعٌ (arbaʻun muqfolatun). Soʻzma-soʻz: toʻrtta qulflangan narsalar. Maʼnosi: ortga qaytarib yoki bekor qilib boʻlmaydigan qatʼiy toʻrt holat (nazr, taloq, qul ozod qilish va nikoh).

3.4. Sifatli frazemalarning morfologik-sintaktik modellari. Arab tili frazeologik tizimida sifat turkumiga oid soʻzlar ishtirokida shakllanuvchi turgʻun birikmalar shaxsning ijtimoiy va psixologik portretini, tashqi koʻrinishi yoki aqliy salohiyatini tasvirlashda faol lisoniy vosita sanaladi. Ular asosan gapda xabar, aniqlovchi yoki hol sintaktik pozitsiyasini egallaydi va qatʼiy qoliplarga asoslanadi.

Model 1. Sifat (muzof) + Ot (muzof ilayh) (Adj + N_{gen}) Arab tilida adʼyektiv frazemalarning eng sarmahsul koʻrinishi boʻlib, u sifatning otga haqiqiy boʻlmagan izofasi (izofatun gʻayru haqiqiyya) orqali yasalanadi. Bunda birinchi oʻrinda turgan sifat oʻzidan

keyingi majrur holatidagi otning (odatda tana a'zosi) belgisini emas, balki butun shaxsning sifatini ko'rsatadi:

الْفَقَا عَرِيض ('arizu al-qofa). So'zma-so'z: ensasi keng. Ma'nosi: aqlan zaif, farosatsiz, fahmi past inson. **عَرِيض** (sifat, muzof) + **الْفَقَا** (tana a'zosini bildiruvchi ot, muzof ilayh). Fiziologik jihatdan bo'yinning yo'g'onligi metonimik asosda zehnsizlik lingvokulturologik kodiga aylangan.

ذَرْبُ اللِّسَانِ (zaribu al-lisan). So'zma-so'z: tili o'tkir (sanchiladigan). Ma'nosi: tili zahar, odamlarga so'zi bilan ozor beradigan shaxs. **ذَرْبُ** (sifat) + **اللِّسَانِ** (ot, majrur holatda). Nayzaning o'tkirligiga nisbatan ishlatiluvchi sifat nutq apparatiga ko'chirilgan.

الْإِزَارِ كَمِيشُن / الْعِدَارِ شَدِيدُ (kamishu al-izar / shadidu al-izar). So'zma-so'z: izorini yig'ib olgan / yuganini qattiq tortgan. Ma'nosi: ishga jiddiy kirishgan, to'la shaylangan, qat'iyatli shaxs. Kiyimni yig'ishtirish yoki yuganni tortish vizual holatlari "tayyorgarlik" abstrakt tushunchasini gavdalantiruvchi ad'yektiv qolipdir.

Model 2. Ot + Sifat (N + Adj) Erkin so'z birikmalaridan farqli ravishda, frazemalarda sifat o'zining birlamchi denotativ ma'nosidan ajralib, ot bilan ajralmas turg'un shaklga kirishadi:

ذَكَرَ رَجُلٌ (rojulun zakar). So'zma-so'z: erkak erkak. Ma'nosi: mard, qat'iyatli va ishlarni pishiq bajaruvchi kishi. Biologik jinsni bildiruvchi "zakar" leksemasi bu o'rinda ijtimoiy-axloqiy jasoratni ko'rsatuvchi sifat vazifasiga o'tgan.

نَجُودٌ امْرَأَةٌ (imro'atun najud). So'zma-so'z: baland ayol. Ma'nosi: aqlli, farosatli, uzoqni ko'ra oladigan dono ayol. "Najd" (balandlik) somatik balandlikni emas, balki intellektual va ma'naviy darajani ifodalaydi.

3.5. Ravishli va ko'makchili frazemalarning modellari. Makrosintaktik muhitda harakatning holati, payti, o'rni yoki tarzini ko'rsatishga ixtisoslashgan frazemalar asosan predloglar va tushum kelishigidagi ravishdosh yoki otlar orqali ifodalanadi.

Model 1. Takrorlanuvchi qolip (N_{acc} + N_{acc}) So'z shakllarining yonma-yon takrorlanishi harakatning uzluksizligi yoki davomiyligini ko'rsatuvchi sintaktik vositadir:

أَرْسَالًا أَرْسَالًا (arsalan arsalan). So'zma-so'z: to'da-to'da bo'lib. Ma'nosi: ketma-ket, uzluksiz, guruh-guruh bo'lib kelish. **أَرْسَالًا** otning tushum kelishigida ikki marta aynan takrorlanishi semantik kuchayishni ta'minlab, ravish funksiyasini bajargan.

Model 2. Predlog + Ot + Olmosh (Prep + N + Pron) Insonning amaliy harakat tarzini ifodalashga xizmat qiluvchi qotib qolgan iboralar guruhi:

رِسْلِكَ عَلَيَّ ('ala rislika). So'zma-so'z: o'z yengilliging ustida bo'l. Ma'nosi: shoshilma, bosiqlik va muloyimlik bilan harakat qil. **عَلَيَّ** (predlog) + **رِسْلِي** (majrur holatdagi ot) + **كَ** (ikkinchi shaxs olmoshi). Tuyaning sog'ishga tayyor suti (risl) yordamidagi "yumshoqlik" ma'nosi buyruq-ravish xarakteridagi frazemaga aylangan.

فَاهِي إِلَى فَاهِي (fahu ila fiyya). So'zma-so'z: uning og'zi mening og'zimga. Ma'nosi: yuzmayuz, vositachisiz, shaxsan o'zidan eshitish. Ikkita muttasil olmoshi bor somatik otlar

predlog yordamida harakatning aniq masofasini ko'rsatuvchi turg'un hol frazemasini shakllantirgan.

Muhokama. Tadqiqot doirasida ajratib olingan frazeologik birliklarning morfologik-sintaktik qoliplari tahlili ularning lisoniy tabiati nihoyatda tizimli ekanligini isbotlaydi. Frazemalar arab tilining chuqur grammatik qonuniyatlariga – foil va maf'ul muvofiqligi, izofa munosabatlari va predloglar boshqaruviga to'liq amal qilgan holda faoliyat ko'rsatadi.

Frazeologik birliklarning struktur-grammatik xususiyatlarini belgilovchi tayanch lingvistik mezonlardan biri ularning minimal komponent tarkibidir. Ilmiy xulosalarga ko'ra, arab tilidagi frazemalar genetik jihatdan qaysi turkumga borib taqalishidan qat'i nazar, kamida ikki va undan ortiq komponentdan iborat bo'ladi (Бекиров Р. А. Учебное пособие. Ч. I. – Симферополь, 2016. – С. 16.). Mahmud Zamaxshariy asaridagi idiomalar ushbu lisoniy me'yorga to'liq mos keladi. Ularda nasb va majrur holatlarining shakllanishida, shuningdek, komponentlararo semantik bog'liqlikni yaratishda predloglar va bog'lovchilarning ishtiroki markaziy o'rin tutadi. Yordamchi so'zlar frazema tarkibida o'zining sof grammatik funksiyasidan tashqari, butunlikning majoziy ma'nosini qulfovchi leksik vositaga aylanadi.

Bundan tashqari, frazeologik birliklarning turg'unligi ularning muqobil erkin birikmalariga xos bo'lmagan komponentlarni tanlashdagi qat'iy cheklovlar majmuyi bilan ta'minlanadi. Asarda qayd etilgan □□□□□ □□□□□ yoki □□□ □□□□□□ □□□□□□□ kabi o'nlab idiomalar tarkibidagi biror elementni boshqa sinonimga almashtirish yoki sintaktik pozitsiyasini o'zgartirish, birlikning til xotirasiga o'rnashgan yaxlit majoziy ma'nosining to'liq parchalanishiga olib keladi. Ushbu lisoniy jarayon Sh. Ballining nazariy qarashlarida o'zining aniq ifodasini topgan: "So'z birikmasi o'zining eng yuqori darajadagi jipslashuviga yetganidagina til doirasiga yagona butunlik sifatida kirib keladi" (Балли Ш. Французская стилистика / пер. с фр. – М.: Просвещение, 1981. – С. 89).

Zamaxshariy materiallaridagi grammatik subyekтли frazeogaplar, bevosita va bilvosita obyektli qoliplar, shuningdek, aniqlovchi va hol vazifasida keluvchi otli hamda ravishli modellar o'zining kommunikativ vazifasini qat'iy chegaralangan sintaktik butunlik orqali amalga oshiradi.

Xulosa. Mahmud Zamaxshariyning "Al-foiq fi g'aribi-l-hadis" asari leksikoniga oid frazeologik birliklarning struktur-grammatik tahlili quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Asarda qo'llanilgan arab tilidagi frazeologik birliklar tarkibiy va lisoniy-semantik jihatdan qat'iy tizimlashtirilgan hodisa bo'lib, tilning tarixiy-morfologik modellarini butunligicha saqlab qolgan.

Fe'lli frazemalar sintaktik hajmi va subyekt qatnashuvi mezoniga ko'ra mikrosintaktik va mezosintaktik qoliplarga ajraladi. Fe'l ishtirok etgan modellar, ayniqsa tushum kelishigi

va predlog boshqaruviga asoslangan konstruksiyalar, murakkab obyektli munosabatlarni tasvirlashda yuqori mahsuldorlik ko'rsatgan.

Ot, sifat va ravishli frazemalar morfologik jihatdan izofa (aniqlovchi-aniqlanmish), sifatlashish va takrorlanuvchi qurilmalar kabi barqaror modellar asosida shakllanib, matn ichida yaxlit hukm, belgi yoki harakat holatini vizuallashtirish xususiyatiga ega.

Komponentlarning o'zaro kelishuv, boshqaruv va bitishuv aloqalari tasodifiy emas. Ular frazeologik chatishma darajasiga yetishi uchun grammatik moslashuv saqlangan holda leksik mustaqillikdan voz kechish tamoyiliga asoslanadi.

Frazeologik materiallarning mazkur boy sintaktik rang-barangligi va turg'un konstruksiyalari ularni kelgusida leksik-semantik aspektda tasniflash, lingvokulturologik kodlarini yechish hamda boshqa tillarga o'girishdagi transformatsion yondashuvlarni tadqiq etish uchun ilmiy poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Балли Ш. Французская стилистика / пер. с фр. – М.: Просвещение, 1981.
2. Бекиров Р. А. Актуальность исследования глагольных фразеологизмов в арабском языке // Ученые записки ТНУ. Сер.: Филология. – 2009. – № 3, Т. 22 (61). – С. 17–23.
3. Бекиров Р. А. Учебное пособие. Ч. I. – Симферополь: 2016.
4. Гранде Б. М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Восточная литература РАН, 1998.
5. Ушаков В. Д. Фраzeология Корана: Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка. – М.: Восточная литература РАН, 1996.
6. Zamaxshariy, Jarulloh Mahmud ibn Umar. 1970. Al-Faiq fi g'arib al-hadis. Tahririyat: Ali Muhammad al-Bajaviy va Muhammad Abu al-Fadl Ibrohim. Qohira: Matba'a Iso al-Bobiy al-Halabiy va Shurakahu. 4 jild.
7. Sulaymonova, N. (2020). On patience etiquette of khwaresmian scholar mahmud Zamakhshariy. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1482-1487.